



MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING IJTIMOIIY-SIYOSIIY QARASHLARIGA DOIR

Inobat Bazarbayeva,
Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207403>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkiston jadidchilik harakati namoyondasi, o‘lkada jadidchilik rahnamosi, serqirra ijodkor, publitsist, pedagog, siyosatshunos, tilshunos, dramaturg Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, jadidchilikdagi o‘rni kabi masalalar u yaratgan publitsistik asarlari misolida tahlil qilingan. Jumladan, “Ikki emas, to‘rt til lozim”, “Tanqid saralamoqdur”, “Teatr nadur”, “Ehtiyoji millat” kabi qator maqolalarida o‘z davrining dolzarb muammolari, millat taqdiriga daxldor bo‘lgan, ayniqsa, yoshlar ma‘naviyati, ma‘rifatini yuksaltirishdagi qarashlari kabi masalalarni qamrab olinganligi ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: jadid, jadidchilik, adabiyot, ocherk, publitsistik, ilmiy asar, badiiy asar, ijtimoiylik, drama, sart, majhullik, tanqid, teatr, ma‘rifat.

Mahmudxo‘ja Behbudi Turkiston o‘lkasida tom ma‘noda jadidchilik rahnamosi sifatida o‘chmas iz qoldirgan ulug‘ ajdodlarimizdan biridir. Uning butun faoliyati, yaratgan ilmiy va badiiy asarlari, publitsistikasi, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlari, Turkiston jadidchilik harakati borasidagi tashabbuslari milliy ta‘lim sohasidagi beqiyos xizmatlari diqqatga sazovor. O‘zbek ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini o‘rganish va targ‘ib-tashviq etish o‘ziga xos dolzarb va asosiy masalalardan biridir. Zero, Turkiston o‘lkasida qiyin va tahlikali bo‘lgan bu davrda yashagan va haqiqat va adolat uchun o‘linga ham tik qaragan Behbudiye dek ajdodlarimiz anchagina edi. Shu bois, bunday ibratli va fidoiy ajdodlarimizning faoliyatini keng ommaga yoyish, jadidchilik g‘oyalarining asl mohiyatini yoshlar ongiga singdirish bu yo‘lda faoliyat olib borayotgan har bir insonning, har bir mutaxassisning vazifasi ham burchidir.

Mazkur maqolada, biz Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik faoliyatiga qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Mahmudxo‘ja Behbudi XX asrning 1-choragidagi Turkistonning eng mashhur kishilaridan biri edi. Uning dunyoqarashining shakllanishida Rusiya jadidchilik harakatining asoschilaridan biri Ismoilbek Gaspirinskiyning ta‘siri ancha katta bo‘lgan. Behbudi o‘zbek va tojik tillarida chiqargan juda ko‘p darslik va qo‘llanmalarda uning qarashlariga tayanib ish ko‘radi. Xususan, Gaspirinskiyning 1998-yilda bosilib chiqqan “Rahbari muallimlik yoki muallimlarga yo‘ldosh” kitobiga ergashadi. “Usuli savtiya” maktablarining



Rusiyadagi bosh muassisi Ismoilbek hazratlaridir. Birinchi yangi usul alifboning murattib va noshiri yana Ismoilbek hazratlaridir - deb yozgan edi Behbudiy 1914-yilda. Behbudiy Gaspirinskiyning har tomonlama o‘ziga xos ustoz deb bildi va uning izidan boradi. Uning shijoati, kuch-g‘ayratini, millat uchun jonini fido qilishga tayyorligini ko‘rgan Behbudiy, Gasprinskiy vafoti munosabati bilan yozgan maqolasida “Russiya musulmonlari ichida bunday bir zot kelgan yo‘qdur”, - deb alohida ta’kidlagan.

Ma’lumki, Behbudiy matbuot ishlari bilan faol shug‘ullandi. Buni “Samarqand” gazetasi, “Oyna” jurnalini chiqarganligi ham tasdiqlaydi. U mazkur nashrlar orqali o‘z ijtimoiy-siyosiy qarashlarni ommaga yoya boshlaydi. Uning bir qator maqolalari, jumladan, “Ikki emas, to‘rt til lozim”, “Tanqid saralamoqdur”, “Teatr nadur”, “Ehtiyoji millat”, “Jaholat dardlaridan”, “Yoshlarga murojaat”, “Libos qiyofat”, “Haq olinur, berilmas”, “Til masalasi”, “Bizga isloh kerak”, “Turkiston muxtoriyati”, “Bizni kemirguvchi illatlar”, “Sart so‘zi majhullikdir”da o‘z davrining asosiy muammolariga, millat taqdiriga daxldor masalalar xususida tanqidiy munosabat bildiradi.

Masalan, o‘zining “Oyna” jurnalining 1913-yil 30-avgustdagi 1-sonidayoq: “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasi yoziladi. Unda: “Biz turkistonliklarga turkiy, forsiy, arabiy va rusiy tillarni bilmoq lozimdur. Arabiy bilmasang din, ruscha bilmasang dunyo qo‘ldan ketar, turkiy va forsiyni keraklig‘iga so‘z yo‘qtur. Yana bir til va xat borki, butun olam bir-birila anim ila so‘ylyaydur. Ul fransa tili va xatidur”[1;1] degan jummalarni ko‘rish mumkin. Manbalardan ma’lumki, Behbudiy ko‘plab davlatlarga sayohat qiladi, to‘g‘rirog‘i, xizmat safarlarida bo‘ladi. Jumladan, haj safarini ado etadi, Moskva, Peterburg shaharlariga, 1907- yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorod shaharlarida bo‘ladi va u yerlarning taraqqiyotini, urf-odatlarini-yu, an‘analari, qadriyatlarini bilan, yoshlarning dunyoqarashi bilan yaqindan tanishar ekan, alamli savol qiynagan. Nega biz Turkiston yoshlari ular kabi bo‘lolmaydi qabilidagi fikrlar unga tinchlik bermaydi va buning yo‘li faqat til o‘rganishda ekanligini anglab yetadi. Shu boisdan ham, mazkur maqolada yoshlarni til o‘rganishga undagan.

“Tanqid saralamoqdur” [1] maqolasida adabiy tanqidga alohida e’tibor berdi. Navoiydan keyin necha asrlik sukunatdan so‘ng bu sohaning xos xususiyatlarining tayin etib, adabiyotda teng huquqlik masalasini o‘rtaga tashladi. Shuningdek, tanqidning birovga qasddan qilinadigan dushmanlik emasligini, balki tanqid – “saralash”ma’nosini anglatuvchi, xuddiki, sarroflar aqchani, tujjorlar matoni saralaganidek, muharrirlar ham umumiy hol va maishatga taalluq nimadirlani

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



saralaydiki, bu boshqacha aytganda, “tanqid” deyilishini ta’kidlaydi. Masalan, o‘z davrida yangi maktab va muallimlari va unda o‘qiladigan kitoblarni ma’nan taftish etib, undagi nuqsonlarni, kamchiliklarni bayon etish tanqid ekanligini tushuntiradi va aslo hujum yoki yomonlik emasligini izohlab ham o‘tadi.

“Ehtiyoji millat” maqolasida esa boshqa millatlarda bo‘lgani kabi turkiy xalqlarning ham diniy va dunyoviy ilmlar o‘rganishga da’vat etadi. Chunki dunyoda turmuk uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘ladi. Masalan, o‘sha davrda turli kasb egalari ruslar bo‘lganligi va oddiy xalq ular bilan muloqot qilishga qiynalganligi, xalq ko‘p aziyat chekkanligi alohida ta’kidlangan. Yozuvchining aytishicha, agar o‘sha kablarni turkistonliklar egallaganda xalq hozirgiday azob-uqubatda qolmasligiga diqqat qaratadi: “Turkiston musulmonlaridan shunday huquqshunos vakil bo‘lsa, bizni din va millatimiz naf’iga harakat qilur. Ammo shunday odam bizda yo‘q. Boshimiz og‘risa duxturga boramiz, ammo dardimizni aytmoqqa til yo‘q. O‘zimizdan duxtur yo‘q. Ikkimiz bir-birimiz ila nizo qilamiz. Ketamiz zakunchiga, so‘ylamoqqa til yo‘q. Oradagi odamlar yana bizga firib berar, pul berarmiz, yugurarmiz, yana ishlar barbod, oxiri yo‘q. Imorat qilmoqchi bo‘lsak, plon-loyihasi lozimki, injinerga muhtoj bo‘larmiz. Ammo biz hanuz “muhandis” ismini bilmaymiz”. Shuningdek, Behbudiyning to‘y va ta’ziyaga sarf qilinadigan mablag‘larni turkistonliklar, ilm va din yo‘liga sarf etganida, maktablar qurishga homiylik qilganda edi, xalq hattoki, Yevropani ortda qoldirib ketishi mumkinligini, agar shu holda ketadigan bo‘lsa, faqat qashshoqlashib qolishi hech gap emasligini ich-ichidan ming dard ila kuyib aytgan haqiqatlari edi. Bu fikrlari, holbuki, bugungi davr uchun ham g‘oyatda muhim va zarurdir. Zero, bugungi kunda ham sarf-xarajatni haddan ziyod bekorga sarflayotganlar, faqat quruq obro‘, son-shuhrat yo‘lida qurbon qilayotganlar ham yetarli darajada.

“Sart so‘zi majhuldir”[1:1] maqolasida, sart so‘zining hali-hanuz noaniqligicha qolganligini isbotlab bergan. Tarixdan ma’lumki, Turkiston zabt etilgach, ruslar mahalliy xalqqa “sartlar” deb nom berdilar. N.Ostroumovning bir kitobi ham shunday nomlangan. Bu so‘z aslida - qatlam, goho sotsial qatlamga nisbatan aytilgan. Bu borada bir qancha munozarali maqolalar e’lon qilindi. Masalan, Mulla Abdullabek degan maqola yozib “Sadoyi Farg‘ona”ga yuboradi, ammo maqola bosib chiqarilmaydi. Shundan so‘ng, o‘z jurnalidan maqolani qayta bosib chiqarishga majbur bo‘ldi. Maqola hajman salmoqli, jurnalning bir necha sonida davom etgan. Adib “Sart so‘zini qadimiy etimologiyasidan tortib, A.Navoiy, Z.M.Bobur, M.Solih,



Abdulg‘ozi Bahodirxonning asarlarigacha N.Ostroumovning kitobidan tortib, A.Vamberi “Kundaliklar”igacha, jadidchilik hayotining namoyondasi Ahmad Zakiy Validiydan Ismoilbek Gaspirinskiygacha bo‘lgan namoyondalarning bu sohadagi kuzatishlarini o‘rganib, shunday xulosalaydi: “Shayboniynoma”, “Boburnoma” va “Abdulg‘ozixon” kitoblarida ba’zi bir turkistoniylar sart deb atalibdur. Ovro‘poning ayrim sayyohlari yozubdurlarki, Turkistonda shahar xalqining yoki forsiy xalqini, yo tojikni noma‘lum zamonda sart atardilar. Nomuayyan bir zamonda Dashti Qipchoq yoinki Xitoy hududidagi sart nominda bir toifa kelib, Turkistonga yerlashib, so‘ngra boshqalar tarafidan yutulib va boshqa uruqlar ila atalub ketgandurlar. Ana, Turkiston Rusiy va Buxoro xalqiga sartlik ismini tarqaturg‘a dalili shundan iboratdur”. Biz takror aytamizki, mazkur ehtimolni qaysi biri chin bo‘lgan suratda ham nafsul-amrda, bukun Turonda sart yo‘qdur” qabilidagi fikrlarni ilgari suradi. Behbudiy “Sadoyi Farg‘ona” muallifi Mulla Abdullabekning “Har kim bizni sart desa, shunga xursand bo‘lib, faxr qilmog‘imiz darkordur, zeroki, sart degani masjidlik, madrasalik, bozorlik, ozoda va ulamoni ma‘dani degani bo‘lur” fikrini rad etadi. Lotinning “sart” – “sari it”dan degan fikrni qanchalar haqoratli bo‘lsa, “ozodavosh” deyish ham shunchalik asossizligini ta‘kidlaydi va tarixiy manbalarga suyanib, “Sart na ma‘noda bo‘lsa bo‘lsun, arbobi tarafidan hal qilinmaguncha oni qabul etmaslikka haqqi bor”, - deb hisobladi.

Muxtasar qilib aytganda, Behbudiy faoliyatini, u yaratgan asarlari, ijtimoiy-siyosiy qarashlari aks etgan publitsistik maqolalarini tahlil qilar ekanmiz, uning ning butun ilmiy-ijodiy faoliyatining asosiy maqsadi yoshlarni ilm-ma‘rifatli qilish, xalqni ma‘naviyatli, madaniyatli mustaqil fikrli qilib taraqqiy toptirishdan iborat ekanligi ayon bo‘ladi. Uning har bir so‘zi, har bir jumlasini, yosh avlod tarbiyasida, ularni komil inson qilib ulg‘ayishida bir ma‘naviy ozuqa bo‘lishi ayni haqiqatdir. Behbudiy haqidagi so‘zlarimizning xulosasi sifatida F.Xo‘jayevning quyidagi fikrlarini keltiramiz: “Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o‘sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng kela oladigan kishi bo‘lmasa kerak”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ойна журналі. 1913-йил 30-августдаги 1-сон.
2. Бехбудий «Баёни хақиқат». «Фан ва турмуш», Т, 1982 йил, 5-сон.
3. Бехбудий «Ёшларга мурожаат», «Икки эмас, тўрт тил лозим». «Тафаккур» журналі. 1994 йил, 1-сон.
4. Б.Қосимов «Бехбудий ва жадидчилик». «Ўзбек адабиёти ва санъати». 1990 йил, 19, 26 январ.
5. Б.Қосимов «Карвон боши». «Ёшлик» журналі. 1990 йил, 1-сон.